

O'RTA ASR SHAHARLARIDA JAMOAT MARKAZLARINING SHAKLLANISHI**Fayziyev Xurshid Dilshadovich**

Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14328832>

Annotatsiya. Ushbu maqola Markaziy Osiyo o'rta asr shaharlarining arxitekturasini va shaharsozlik tarixiga bag'ishlangan. Maqolada shaharlarning asosiy tuzilishi, karvon yo'llarining kesishuvi va jamoat markazlarining shakllanishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Chorsu, ya'ni chorrahalar shahar markazlarining asosiy elementi sifatida ajratilgan bo'lib, bu joylarda jamoat imoratlari va ma'muriy markazlar o'zaro aloqalarini o'rganish mumkin. Shaharlar ichidagi ansamblar, masjidlar, madrasa va savdo gumbazlari bir-birini to'ldirib, umummarkaz va mahalla markazlarini tashkil etgan. Maqolada shaharlarning funksional jihatlari, jamoat markazlarining tuzilishi va mahalla ansamblarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o'rta asrlar shaharsozligida qurilish jarayonlarining rejalashtirilishi, badiiy g'oya va arxitektura usullari haqida ham ma'lumotlar berilgan. Ushbu tadqiqot, shaharlar tarixini chuqur o'rganish orqali Markaziy Osiyo madaniyati va arxitektura merosining ahamiyatini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: jamoat markazlari, ma'muriy markazlar, arxitektura, ibodatgoh, registon, bozor maydoni, karvon yo'llari, chorsu, savdo gumbazlari, mahalla aholisining yo'llari.

ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ЦЕНТРОВ В СРЕДНЕВЕКОВЫХ ГОРОДАХ

Аннотация. Данная статья посвящена архитектуре и истории градостроительства средневековых городов Центральной Азии. В статье представлена информация о структуре городов, пересечении караванных путей и формировании общественных центров. Чорсу, или перекрестки, выделены как основной элемент центров городов, где можно изучить взаимосвязи между общественными зданиями и административными центрами. Ансамбли внутри городов, мечети, медресе и торговые купола дополняли друг друга, образуя общегородские и районные центры. В статье освещены функциональные аспекты городов, структура общественных центров и важность районных ансамблей. Также представлены сведения о планировании строительных процессов в средние века, художественной идее и архитектурных приемах. Данное исследование направлено на повышение значимости культуры и архитектурного наследия Центральной Азии через глубокое изучение истории городов.

Ключевые слова: общественные центры, административные центры, архитектура, молитвенный дом, регистан, рыночная площадь, караванные пути, чорсу, торговые купола, дороги жителей микрорайона.

THE FORMATION OF COMMUNITY CENTERS IN MEDIEVAL CITIES

Abstract. This article is dedicated to the architecture and urban planning history of medieval cities in Central Asia. The article provides information about the structure of cities, the intersection of caravan routes, and the formation of public centers. Chorsu, or intersections, are highlighted as the main element of city centers, where the interconnections between public buildings and administrative centers can be studied. The ensembles within cities, including mosques, madrasas, and trade domes, complemented each other, forming urban and neighborhood centers. The article discusses the functional aspects of cities, the structure of public centers, and the significance of neighborhood ensembles. It also presents information about the planning of construction processes in the Middle Ages, artistic ideas, and architectural techniques. This research aims to enhance the importance of Central Asian culture and architectural heritage through an in-depth study of the history of cities.

Key words: public centers, administrative centers, architecture, place of worship, registan, market place, caravan routes, chorsu, trading domes, streets of neighborhood residents.

KIRISH

Markaziy Osiyo o'rta asr shaharlarining urbanistik tarixi, o'ziga xos madaniyati va me'moriy an'alarini o'rganish, nafaqat ushbu hududning o'ziga xosligi, balki global tarix va madaniyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu davrda shakllangan shaharlar, asosan, muhim savdo yo'llarining kesishuvi joylashgan bo'lib, ular dunyoning turli burchaklaridan kelgan savdogarlarni va sayyohlarni bir joyga to'plagan. Bunday savdo markazlari, nafaqat iqtisodiy faoliyatni rivojlantirgan, balki turli madaniyatlar va an'analarni almashish uchun sahna bo'lgan.

O'rta asr shaharlarining markaziy joylari, shuningdek, jamoat va ma'muriy imoratlar bilan boyitilgan bo'lib, ular ijtimoiy hayotning, diniy tadbirlarning va madaniy faoliyatning muhim nuqtalari sifatida xizmat qilgan. Markaziy Osiyo shaharlarida joylashgan jamoat markazlari va ibodatgohlar, aholi uchun zarur bo'lgan barcha funksiyalarni bajaradigan muhim inshootlar sifatida e'tiborga molikdir. Bu markazlar, mahalliy aholi va sayyohlar uchun qulay muhit yaratgan, shuningdek, savdo va madaniyatning rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Maqolamizda, chorsu va ansamblar shakllanishining me'moriy jihatlarini, shuningdek, jamoat va ma'muriy binolar o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqiladi.

O'rta asr shaharlarining urbanistik strukturalari, ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi roli va zamonaviy shaharsozlik jarayonlarida qanday aks etishi tadqiq etiladi. Ushbu tadqiqot, markaziy Osiyo shaharlarining me'moriy merosi va madaniy ahamiyatini chuqur o'rganish orqali,

jamoat markazlari va ibodatgohlarning shakllanishi, savdo va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yoritishga qaratilgan.

Ushbu maqola, shaharsozlik jarayonlarining tarixi va uning zamonaviy kontekstdagi ahamiyatini ko'rsatish orqali, kelajakda shaharlar rivojlanishining muhim yo'nalishlarini belgilashda yordam berishi kutilmoqda.



Asosiy qism

Markaziy Osiyo o'rta asrlar shaharlarining katta asosiy qismi karvon yo'llari kesishuvida tashkil topgan. Mana shu chorraha odatda shahar markazini tashkil etgan va Chorsu (*to'rt yo'nalish, ko'cha degani*) deb atalgan. Ansambllar kelib chiqishidan oldin dastlabki shaharsozlik namunalari jamoat imoratini turar joylardan alohida maydonchada balandroq qilib ajratib qurish yuzaga kelgan edi. O'rta asrlarda endi oldingidek faqatgina bitta imoratni ajratibgina ko'rsatmay,

1-rasm. Registon maydoni (Samarqand)

2-rasm. Ichan qal'a markazi (Xiva)

balki bir necha imorat va jamoat




markazlarini ajratib ko'rsatish ehtiyoji kelib chiqdi. Bu esa o'z navbatida ibodatgoh, savdo, ma'muriy markazlar ansambllarining yaratilishiga olib keldi.

Uning atrofida esa bir qator mahallalar markazlari yuzaga keldi. Shunday qilib shaharlar turar-joy fonida yaqqol ajralib turadigan umumshahar va mahalla markazlarini tashkil etadigan ansambllar majmuidan shakllandi.

Har bir shaharning ma'muriy inshooti oldida farmonlarni e'lon va ijro etadigan maydon (*Samarqand, Toshkent va Buxoroda bu vazifani Registon maydonlari bajargan*), bosh bozor sahni, savdo chorrahalari, ko'chalar bo'ylab ketgan rastalar, jome masjidleri, madrasalar asosida shakllangan shahar ma'rifiy markazi kabi qismlari bo'lgan. Mana shu yerdagi imoratlar ansambl tarzida qurilgan. Bular odatda juft, qo'sh, maydon va bir kompozitsion o'q bo'ylab joylashtirish usullarida bunyod etilgan.

Markaziy Osiyo shaharlari me'moriy ansamblarining yaratilish tarixini yozma manbalardan o'rganish shuni ko'rsatadiki, inshootlarning asosiy qismi oldindan o'ylab amalga oshirilgan ekan. O'sha paytlarda Xuroson va Movarounnahr yaxlit madaniy mintaqani tashkil etganligi ma'lum. Shuning uchun ham o'rta asrlar tarixnavislarining nafaqat Movarounnahr, balki Eron va Ozarbayjon shaharsozligida ham yaxlit imoratlar guruhlarini maxsus me'moriy loyihalar asosida amalga oshirganligi haqidagi ma'lumotlari diqqatga sazovordir.



3-rasm Eski shahar markazi
(Buxoro)



4-rasm Bayram va tadbirlar o'tkazilgan
maydon

badiiy g'oya asosida bunyod qilishga ancha qadimdan katta e'tibor berilgan. Chunki bundan bir necha imorat bir-birovining nufuziga qo'shimcha ko'rk bo'lib yanada serhashamlroq qilib ko'rsatgan. Har bir hokim binolarni salobatliroq qilib qurib shu tufayli o'z qudratini namoyish etgan. Binolar turlicha funksional jihatlarni – ma'muriy, tijorat, madaniy, maishiy, ma'rifiy guruhlarini tashkil etgan. Bu funksional guruhlarining barchasi shahar strukturasida mavjud bo'lgan va birgalikda butun shahar funksiyasini va uning ma'muriy tuzilishini ifodalagan.

Markaziy Osiyoning o'rta asrlardagi shaharsozligida shaharlarning madina – doxil yoki shahriston deb ataladigan asosiy qismining negizini o'zaro kesishib o'tgan ikki yo'lining chorrahasi – chorsu tashkil etgan. Masalan, Toshkentda ham Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qo'qon, Namangan, Andijon, G'ijduvonda ham va yana bir qator boshqa yerlarda ham bu joylar o'z nomini shu bugungacha saqlab kelmoqda. Registon maydonlari ham katta shaharlar uchun zaruriy shaharsozlik elementi bo'lgan. Jumladan, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Andijonda hozirgacha bu nomlar o'rta asrlardagi shaharning bosh maydonini anglatib turadi.

O'rta asrlar shaharsozligida ansambl tuzish san'atini o'rganib chiqish shuni ko'rsatdiki, XIV asrgacha shaharlar ark, shahriston va rabod uch qismidan tashkil topib shahristonning asosini Chorsu tashkil etgan bo'lsa, shu davrdan so'ng ko'p markazli shahriston yuzaga keladi:

Samarqandda – Bibi Xonim ansambli va bozor maydoni, Chorsu, Registon, Go‘ri Amir va balki ark oldidagi maydon; Buxoroda – Registon, chorsu o‘rniga bir necha chorrahalaridagi savdo gumbazlari – toqlar, Labi Hovuz maydoni va qator ansambllar majmui – Poyi Minor, Hovuzi Nav, Qo‘sh madrasa va boshqalar; Toshkentda Ko‘kaldosh va Xo‘ja Ahror madrasalari hamda Juma masjid kompleksi tashkil etgan maydon; Chorsu Registon va Hazrati Imom kompleksi tashkil etgan maydon; Shahrisabzda Oqsaroy, Chorsu, Dor-us-Saodat va Dor ut-Tilovat ansambllari majmui; Xivada yaxlit bog‘langan Ko‘hna Ark, Juma masjid, Oq masjid, Polvon darvoza oldidagi bozor maydoni, Allaqulixon imoratlari va Qutlug‘ Murod Inoq madrasasi ansambli, Tosh hovli ansambllari turkumi va boshqalar.

Shahar bosh ansambllari aholi yig‘iladigan maydonlarni tashkil etgan va odatda bu maydonlarni ko‘chalar kesib o‘tgan. Mahalla ansambllari esa mahalla aholisining shahar markaziga chiqadigan yo‘llarning bir chekkasida joylashgan bo‘lgan. Bu yerdan markazga borish yo‘li o‘tganligi tufayli mahalla markazi fors-tojik tilida guzar (o‘tish joyi) deb ataladi. Shahar markazlaridagi ansambllar turli imoratlardan tashkil topgan bo‘lsa, mahalla markazlarining ko‘pchiligi uchun umumiy bo‘lgan inshootlar mavjud.

Bular dastavval mahalla aholisi foydalanishga mo‘ljallangan masjid va hovuz. Bu ikki inshoot zaruriy bo‘lib barcha mahalla markazlarida mavjud. Bundan tashqari uchraydigan binolar bu maktab, choyxona, madrasa yoki xo‘jalik va ma‘muriy maqsadlarda foydalanishga mo‘ljallangan hujralar. Shuningdek, minora va tahoraxona ham zaruriy inshoot hisoblangan.

Ammo ba‘zi bir masjidlarda minora alohida imorat tarzida emas, balki darvozaxona yoki masjid tomida kichikroq chortoq – mezana sifatida tiklangan.

Ba‘zi bir mahalla ansambllari turkumida hammom, sartaroshxona, qassoblik, bazzozlik kabi do‘konlar ham uchraydi. Biz qayd qilib o‘tgan xonalar va imoratlar 1920-yillargacha bo‘lgan davrda paydo bo‘lgan. Shundan keyingi muddatda esa tibbiy xizmat ko‘rsatish, tartibni saqlash maqsadlarida foydalaniladigan, harfxona qilishga mo‘ljallangan xonalar va mahalla komiteti hamda klub xonalari singari qo‘shimcha funksiyalar yuzaga keldi.

Mahalla ansambllari hovuz atrofini shakllantirishga qaratilganidan hovli tuzish san‘atidan iborat. Shuning uchun biz shahar markazlaridagi ansamblsozlikni hajmlar vositasida muhitga bo‘ysungan hajmlar g‘oyasidan kelib chiqqan deb ta’rifladik. Bu ikki g‘oya me‘moriy ijodda yetakchi ikki yo‘lni belgilab beradi.

Shuning uchun ham muhitni bo‘ysundirish g‘oyasini aks ettirgan ansambllar ular tashkil etadigan maydondan kuzatish (tomosha qilish ma’nosida)ga mo‘ljallangan. Ikkinchi turdagisi esa chekkadan, ansambl atrofidan boqishga mo‘ljallangan.

Muhit bilan binolar hajmni muvofiqlashtirishning bu ikki g'oyasi Movarounnahr me'morchiligining barcha jabhalarida uchraydi.

Jumladan, turar joylarni olib qarasak past tekisliklar va vohalardagi hovlilik uylar hajmiga olingan muhitdan tashkil topsa, tog' uylari yoki Marv vohasida uchraydigan "ding" deb ataladigan uylar muhit o'rab turgan hajmdan iborat. Endi jamoat markazlarini tashkil etishni olsak unda ham shu misol kabi ko'rinishlar mavjud.

Masalan, katta madrasalar, jome masjidлари, karvon saroylar hovlini o'rab olish vositasida shakllanadi. Buxoro va Xiva minoralari, xonaqohlar, savdo gumbazlari, maqbaralar esa odatda atrofdagi muhitdan boqishga mo'ljallangan.

Xulosa

Izlanishlar natijalariga ko'ra, quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Markaziy Osiyo o'rta asr shaharlarining urbanistik tuzilishi, ularning jamoat va ma'muriy markazlari o'rtasidagi muhim aloqalarni aks ettiradi. Bu shaharlar, karvon yo'llarining kesishuvi joyida joylashgan bo'lib, iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Chorsu va ansambllar, shaharlarning markaziy qismida joylashgan bo'lib, ibodatgohlar, bozorlar va madrasalar bilan birgalikda, ijtimoiy hayotning asosiy nuqtalarini tashkil etadi. Bu o'rinda jamoat imoratlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning tuzilishi va dizayni shaharlarning madaniy merosini belgilaydi.

Har bir shahar, o'zining tarixiy kontekstini hisobga olib, turli funksiyalarni bajaruvchi imoratlarni rivojlantirgan. Buning natijasida, ijtimoiy, ma'muriy va savdo faoliyatlari bir-biri bilan chambarchas bog'lanadi.

Ushbu tadqiqot, markaziy Osiyo shaharlarining urbanistik merosini tushunish va saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Kelajakda shaharlarning rivojlanish yo'nalishlari va jamoat markazlarining shakllanishi, ushbu tarixiy kontekstni hisobga olgan holda belgilanishi zarur.

O'rta asr shaharlarining me'moriy ansambllari, nafaqat o'zining estetik go'zalligi, balki ularning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatidagi ahamiyati bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun, bu shaharlar va ularning jamoat markazlari madaniy meros sifatida saqlanib qolishi kerak.

REFERENCES

1. Ubaydullayev X.M. Inogomova M.M. Turarjoy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari: Darslik. - T.: Voris-nashriyot, 2005
2. Po'latov X. "Shaharsozlik tarixi". Toshkent, 2008-y.
3. Ahmedov M.Q. "Shaharlar estetikasi" o'quv qo'llanma, Toshkent 2014 y;

Internet saytlari

4. www.lex.uz
5. www.arxiv.uz
6. www.mc.uz
7. www.proekts.ru
8. pinterest.com
9. google.com